

## **BOLALAR SPORT USLUBIDAGI KIYIMLARI UCHUN GAZLAMA TANLASH TADQIQI**

**Dadamirzayev Bahromjon Baxtiyor o'g'li,  
Axmadjanov Azizbek Odiljon o'g'li  
Namangan muhandislik-texnologiya instituti**

*Annotatsiya: Maqolada, bolalar sport liboslar to'plamini ishlab chiqarish uchun Namangan viloyatidagi mahalliy bozorlarda marketing tadqiqotlari o'tkazilib, iste'molchilar talablari o'rganildi.*

*Tayanch so'zlar: ergonomik, estetik, gigroskopikligi, gigenik, mexanik xususiyat, konstruktor, texnologik.*

## **ОБЗОР ВЫБОРА ТКАНИ ДЛЯ ДЕТСКОЙ СПОРТИВНОЙ ОДЕЖДЫ**

**Дадамирзаев Бахромжон Бахтиёр ўғли,  
Ахмаджанов Азизбек Одилжон ўғли  
Наманган мухдндислик-технология институти**

*Аннотация: В статье были проведены маркетинговые исследования на местных рынках Наманганской области, изучены потребительские требования для производства комплекта одежды детской спортивной.*

*Ключевые слова: эргономичность, эстетичность, гигроскопичность, гигиеничность, механические свойства, конструктор, технологичность.*

## **OVERVIEW OF CHILDREN'S SPORTS FABRIC CHOICE**

**Dadamirzaev Bakhromjon Bahtiyor ugli,  
Akhmadjanov Azizbek Odiljon ugli  
Namangan Institute of Engineering and Technology**

*Annotation: In the article, marketing research was carried out in the local markets of our Namangan region for the production of a collection of children's sportswear clothes and the requirements of consumers were studied.*

*Keywords: ergonomics, aesthetics, hygroscopicity, hygiene, mechanical properties, designer, manufacturability.*

**Kirish.** Mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda.

Ayni paytda tarmoqda 2500 dan ortiq korxonalar samarali faoliyat yuritib, ularda 100 mingdan ziyod kishi mehnat qilmoqda. Bu korxonalarda tayyor gazlama va matolar, xushbichim tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari, zamonaviy choyshablar, gilam kabi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan.

Soʻnggi 10 yil ichida tarmoqda yuqori oʻsish surʼatlari taʼminlanib, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 4,3 barobarga, mahsulotlar eksporti esa qariyb 4 barobarga oʻsdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida butun tarmoqning eksport salohiyati bor-yoʻgʻi 7 million dollarga teng boʻlgan boʻlsa, ayni paytda yengil sanoat mahsulotlarining eksporti 1 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. Shuningdek, sohada ishlab chiqarilgan toʻqimachilik hamda tayyor kiyim-kechak mahsulotlari jahonning 60 dan ortiq davlatlariga eksport qilinmoqda. Jumladan, soʻngi yillarda Braziliya, Chili, Xorvatiya, Nigeriya kabi mamlakatlarga ham koʻplab turdagi yengil sanoat mahsulotlari eksporti yoʻlga qoʻyildi.

Bunday natijalarga erishishda barcha sohalarda boʻlgani kabi, yengil sanoat tarmogʻida ham keskin sifat oʻzgarishlarini taʼminlashga qaratilgan islohotlar olib borildi. Jumladan, umuman toʻxtab qolgan eski ip-yigiruv kombinatlari oʻrniga zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan xorijiy va qoʻshma korxonalar tashkil etildi. Koʻplab tarmoq korxonalari modernizatsiya qilindi, ularda jahon andozalari darajasidagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi.

Shuningdek, tarmoqda faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida berilgan imtiyoz va preferensiyalar ularning tashqi bozorda mustahkam oʻrniga ega boʻlishiga imkon yaratdi.

**Yechiladigan muammo va masalaning qoʻyilishi.** Yengil sanoatni rivojlantirish borasida bolalar zamonaviy kiyimlarini texnologiyasi hamda loyihalash jarayonlarini yanada takomillashtirish ishlab chiqarishning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Ushbu oldimizda turgan vazifalar yechimini topish uchun bolalar zamonaviy kiyimlariga gazlamalar tanlash, ularning sifat koʻrsatkichlarini, bichimlarini aniqlash, boʻyicha ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borilmoqda.

Xalq extiyoji, bozor rastalari va zamonaviy kiyim assortimentini oʻrganish, uni tahlil qilish orqali ishlab chiqariladigan tikuv, shuningdek, tikuv-trikotaj mahsulotlarini sifatligi, raqobatbardoshligiga erishish mumkin.

Bolalar-oilamiz quvonchi, ertangi kunimiz davomchisidir. Bolalar dunyoning eng muxim boʻlagi hisoblanib, ular bu davrda tashqi muxitga taqlidchan va qiziquvchandir.

Bolalarda o'sish jarayoni bir tekisda o'tmaydi. Bolalar o'lchamlari tipologiyasi katta yoshli aholi tipologiyasidan jiddiy farqlanadi. Teng yoshli bolalar tanasining keng miqyosda o'zgarib turadi, yosh ulg'aygan sari tananing mutanosibligi ham o'zgaradi. Bolalar guruhida o'lchamlar va ular birikmalarining taqsimoti me'yoridagi taqsimotdan keskin farq qiladi. Shu bois bolalar o'lchamlar tipologiyasi maxsus, o'ziga xos uslub bo'yicha ishlab chiqiladi.

Bolalarda tana uzunligi o'sishining yillik o'rtacha qiymati

1-jadval

Yosh, yil	O'g'il bolalar	Qiz bolalar
0	51,5	51,0
1	76,4	75,2
2	87,4	85,4
3	98,9	99,6
4	106,2	104,9
5	113,3	111,1
6	118,9	119,8
7	125,9	125,5
8	130,4	131,4
9	135,2	135,7
10	140,9	141,2
11	146,6	149,0
12	151,9	155,2
13	158,0	157,9
14	165,2	159,9
15	171,7	161,6
16	174,6	161,8
17	174,5	161,4

Bolalar sport kiyimlarini tayyorlashda bolaning tezkorligi, xarakatchanligini alohida etiborga olish muhim ahamiyatga ega.

Ob – havoning doimiy o'zgarib turishi bolalarning sog'ligiga tez ta'sir qilishini hisobga olgan holda iqlim hamda mintaqaviy joylashuvdan kelib chiqib, shahar va qishloqda yashaydigan bolalarning kiyimlari ham ob – havosi va ijtimoiy kelib chiqilishiga qarab tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir.

Eksperiment va olingan natijalarning tahlili. Bolalar sport kiyimlari assortimentiga sport pidjaklari, sport futbolkalari, nimchalar, sport uslubidagi shim va shortiklar; sport turiga qiziqishi hamda ishtirokiga ko'ra sport formalari (kurash kimanosi, futbol formasi, suzish kiyimi) kabi yelkali hamda belli kiyimlarga ajratishimiz mumkin.

Bolalarning kiyinish madaniyati, kiyimlarning rangi, gazlamalarning hususiyati, ishlatilgan bezaklardan tortib ularning bichimi ham alohida e'tiborga olinmoqda.

Modellarning ko'rinishi zamon talablariga muvofiq tasvirlangan bo'lib, bolalar kiyimi tabiiy matolardan tayyorlanadi. Masalan, velyer, maxra, lastik, batist

va boshqalardan tikiladi. Shuningdek sun'iy matolar xam ishlatilishi mumkin. Bolalar kiyimlari zamonaviy bozor tuzilishi va bezagi bo'yicha turli matolarning ishlatilishi bilan xarakterlanadi. 12-14-yoshli bolalar sport kiyimlari uchun, yorqin rangli, tabiiy tolali trikotaj gazlamasi ishlatilishi so'rovnomalar natijasida aniqlandi. O'rta sinf o'g'il bolalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida sportsevar bolalar sport uslubidagi kiyimlarining tashqi ko'rinishi to'g'ri bichimli, yenglari uzun tanaga yopishgan, tabiiy tolali trikotaj matosidan tayyorlanishlari istaklari aniqlandi.

Bolalar sport kiyimini tayyorlash uchun, arzonroq yuqori darajali gigienik, ekspluatatsion va estetik sifatga ega bo'lgan trikotaj gazlamasining fizik-mexanik xususiyatlarini eksperimental yo'l orqali NamMTI To'qimachilik kafedrasida laboratoriyasida maxsus asbob uskunalar orqali tahlil qilindi. Gigroskoplighi, uzishlashdagi kuchi, uzilishdagi cho'ziluvchanlik kabi xususiyatlari aniqlash uchun tadqiqot o'tkazildi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki bolalar sport kiyimlarini tayyorlayotgan korxonaning maxsulotlari yuqori unumli bo'lishini etiborga olgan holda, maxsulot tannarxi arzon, samaradorligi yuqori bo'lishiga erishiladi.

**Xulosa:** 12-14- yoshli bolalar sport kiyimining moda yo'nalishiga mosligi, yangi istiqbolli tabiiy gazlamalardan foydalanilganligi, bezaklarining yangi namunalaridan ishlatilganligi, gazlamaning rangi va guli bolaning kayfiyatiga tag'sir ko'rsatadi, istemolchilarning estetik didlarini qondirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-son farmoni <http://press-service.uz/oz/lists/view/1345>.,14.12.2017.
2. Mirziyoyev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent: "O'zbekiston" 2017 yil
2. Yanchevskaya E.A. Ayollar ustki kiyimlarini konstruksiyalash Toshkent 2003.
3. Komilova X.X., Xamraeva N.K. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Toshkent 2011.
4. Ismatullaev, N.; Dadamirzaev, B. (2020) Naqsh turlari va uning o'ziga xosligi. Молодой исследователь: вызовы и перспективы. Сборник статей по материалам СХСII международной научно-практической конференции. 2020. Стр676-680. <https://elibrary.ru/item.asp?id=44466714>
5. Манзура Р.А., Бахромжон Д.Б., Зухра Б.А. Использование практично – декоративных украшений в национальных костюмах. East European Scientific Journal (Warsaw, Poland) 2019 part 6, 13-16. [https://eesa-journal.com/wp-content/uploads/EESA\\_journal\\_6\\_part\\_0-1.pdf](https://eesa-journal.com/wp-content/uploads/EESA_journal_6_part_0-1.pdf)

6. Parpiev,U.M.; Dadamirzayev,B.B.; Urinova,S. Analysis Of Vibration Effects On Sewing Machines. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research (ISSN–2642-7478) Published:January 31, 2021| Pages:65-69 Doi: <https://doi.org/10.37547/tajjir/Volume03Issue01-11>